

Dolzarb mavzudagi ilmiy tadqiqot

Davlatimiz rahbari ta'lif jarayonining sifati va samarasi borasida doimiy ravishda kuyunchaklik bilan tavsiya, talab va topshiriqlar berib kelishlari beziz emas. Bu mamlakatimizning rivojlangan davlatlardagi ta'lif tizimi darajasiga yetkazish maqsadi bilan bog'liq. Ulardagi ijobiy jihatlarni o'zlashtirish va hamkorlik masalalarini jadallashtirish davr taqozosidir. Bizda o'quv-ta'lif tizimi o'quvchilarni asosan imtihonga tayyorlashga qaratilgani, aslida, ta'lif hayotga tayyorlash zarurligi borasida muhtaram Prezidentimizning o'gitlari ulkan ahamiyat kasb etgani rost. Ilm-fan, ta'lif, ishlab chiqarish va integratsiyaning uyg'unligida hikmat ko'p. Nazariy ma'lumot va amaliy mashg'ulotning uyg'un tarzda ish tutilishi beqiyos ahamiyatga ega. Bu esa dual ta'lif tizimining mohiyatini aks ettiradi. Ma'lumki, bu ta'lif turining xosiyati shundaki, unda nazariy qism ta'lif muassasasida, amaliy qism esa korxonada o'tkaziladi. Bu Germaniya professional ta'lif tizimida keng qo'llaniladi. Ta'lif muassasasini bitkazuvchilarning ish jarayoniga, kasbiy faoliyatga tayyor holda borishida bu muhim rol o'ynaydi. Ayni paytda mutaxassislarining tajribasi, ko'nikmasi va malakasini oshirishga katta hissa qo'shadi. Bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot va monografiyalar ayni kunlarda suvdek, havodek zarur. Kuni kecha muvaffaqiyatli himoya etilgan Choriev Ro'zimurat Kungratovichning "Kasb ta'lifi mutaxassislarini Dual tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish" mavzusi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi (DSc) xuddi shu bo'shlinqni to'ldirishga xizmat qilishi bilan e'tiborga molik. Dissertatsiya o'zining dolzarbliji, yangiligi, faktik ma'lumotlarga boyligi hamda ilmiy jihatdan chuqr va teranligi bilan xarakterlanadi. Dissertatsiya ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Professional ta'lif tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni ijrosini ta'minlash borasida Vazirlar Mahkamasi qaroriga ijobiy va ijodiy javob ham bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz dissertationni ushbu muvaffaqiyati bilan samimiy qutlaymiz.



TIQXMMI matbuot xizmati